



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HIMOYALANISH TAKTIKASI VA MUDOFAA VOSITALARI

Polvanov Azim Kuchkarovich

Toshkent arxitektura –qurilish universiteti o'qituvchisi

Email: polvanovazim70@gmail.com

Tel: +998933948585

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur qo'shinida qo'llanilgan himoyalash taktikasi, qo'shin harakati davomida xavfsizlikni ta'minlash usullari hamda mudofaa vositalarining manbalarda yoritilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, G'iyosiddin Ali, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo va boshqa manbalar asosida qo'shin mudofaasining tashkil etilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, qo'shin, mudofaa taktikasi, himoya vositalari, zirh, qalqon, dubulg'a, soqchilik, harbiy yurish.

DEFENSIVE TACTICS AND MEANS OF DEFENSE IN AMIR TIMUR'S ARMY

Polvanov Azim Kuchkarovich

Teacher of Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Annotation. The article analyzes the defensive tactics employed by Amir Timur's army, the methods used to ensure security during troop movements, and the depiction of defensive measures in historical sources. It also examines the organization of the army's defense based on "Timur's Institutes" (Temur Tuzuklari) and the works of Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Ghiyath al-Din Ali, Ibn Arabshah, Ruy González de Clavijo, and other sources.

Keywords: Amir Timur, army, defensive tactics, defensive equipment, armor, shield, helmet, guard duty, military campaign.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i13/n09>

Amir Temur harbiy san'ati nafaqat hujumkor strategiyasi, balki puxta ishlab chiqilgan mudofaa tizimi bilan ham ajralib turadi. Harbiy yurishlarda qo'shin xavfsizligini ta'minlash, dushmanning kutilmagan hujumlarini qaytarish, qarorgohlarni himoya qilish va askarlarning jangovar salohiyatini saqlab qolish davlat harbiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shu sababli mudofaa taktikasi hamda himoya vositalari qo'shin faoliyatida muhim o'rin egallagan.

Manbalarga ko'ra, Amir Temur qo'shini harbiy yurish davomida doimo jangovar tartibda harakatlangan. Qo'shin tarkibida: ilg'or qism, markaziy qism, o'ng qanot, chap qanot, orqa qo'riqlovchi qism (arergard), razvedka otryadlari, ta'minot karvoni (o'g'riq) mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy faoliyat olib borgan[1].

Dasht va cho'l hududlarida yurish vaqtida razvedkachilar asosiy qo'shindan ancha oldinda harakatlanib, dushman haqida ma'lumot to'plagan. Zarur hollarda qo'shin to'xtatilgan yoki jangovar tartibga keltirilgan.

Qarorgoh mudofaasi

Harbiy yurishlar davomida qarorgoh qurilishi qat'iy tartib asosida amalga oshirilgan. Qarorgoh atrofida qo'riqchilar joylashtirilgan, tun bo'yi navbatchilik tashkil etilgan, otliv patrullar harakat qilgan, kirish va chiqish nazorat ostida bo'lgan. Sohibqiron lashkarlari va o'rduga alohida –alohida qutvol tayinlaganki, o'rduni qo'riqlash, soqchilik ishlari shular zimmasida bo'lgan[2].

Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy asarlarida qo'shin lagerlarining muntazam qo'riqlangani haqida ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Nizomiddin Shomiy hamda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlaridagi ma'lumotlarga harbiy qarorgoh mudofaasi quyidagicha tashkil etilgan. Sohibqiron bu xabarlarni eshitib buyurdiki, turalarni tayyor qilib tursunlar va cherik tegrasida xandaq qazisinlar o'zlaridan xabardor bo'lib, g'ofil bo'lmasinlar[3].

Himoya vositalari

Amir Temur qo'shinida quyidagi mudofaa vositalari keng qo'llanilgan.

Zirh: Temir halqalardan yoki metall plastinalardan tayyorlangan sovut jangchining tanasini qilich, nayza va o'qlardan himoya qilgan.

Dubulg'a: Temir dubulg'alar boshni zarbalardan asrash uchun xizmat qilgan.

Ba'zi dubulg'alarda yuzni himoya qiluvchi metall qismlar ham bo'lgan.

Qalqon: Yog'och, charm yoki metall bilan mustahkamlangan qalqonlar kamon o'qlaridan, qilich zarbalaridan, nayzalardan himoyalashda ishlatilgan.

Qo'l va oyoq zirhlari: Harbiylarning qo'l va oyoqlari uchun ham maxsus metall himoya vositalari mavjud bo'lgan.

Ot zirhlari: Muhim janglarda ayrim otlar ham zirh bilan himoyalangan.

Harbiy yurishlarda xavfsizlikni ta'minlash

Harbiy yurish davomida qo'shin kolonnalari nazorat ostida harakatlangan, ta'minot karvonlari alohida qo'riqlangan, tog' dovonlari va daryo kechuvlari oldindan tekshirilgan, tungi yurishlarda qat'iy intizom saqlangan. Bu choralar qo'shinning yo'qotishlarini kamaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa

Amir Temur qo'shinida mudofaa taktikasi harbiy san'atning ajralmas qismi bo'lgan. Himoya vositalarining takomillashgani, qo'shin harakatining qat'iy tartib asosida tashkil etilgani, qarorgoh mudofaasining puxta yo'lga qo'yilgani hamda razvedka va qo'riqlash tizimining samarali faoliyati qo'shinning jangovar shayligi harbiy yurishlardagi muvaffaqiyatlarda hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Иванин М.И. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. Tarj. A.Mahkamov. Mas'ul muharrir Yu.Muzaffar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 136 .
2. O'ljayeva Sh. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi.— Toshkent. Fan, 2005. —B. 139.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. nashrga tayyorlovchi Ashraf Axmad. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997, – B. 134.
4. Temur Tuzuklari. Alixonto'ra Sog'unii va Habibulla Karamatov tarjimasi. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991,—B.144. y;
5. Nizomiddin Shomii. Zafarnoma. Yunusxon Hakimjonov tarjimasi. "O'zbekiston" nashriyoti,1996.—B.326.;

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.